

**REFLEKSIV KOMPETENSIYALARNING MAZMUN-MOHIYATI VA  
PEDAGOGIK AHAMIYATI  
(BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR MISOLIDA)**

Yuldasheva Sevara Maxsudjonovna

Samarqand pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

[sevara.08038896@gmail.com](mailto:sevara.08038896@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari hamda ularning mazmun-mohiyati yoritilgan. Bunda refleksiya tushunchasining pedagogik talqini, refleksiv kompetensiyalarning tarkibiy komponentlari va ularning pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar, metod va yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Refleksiv kompetensiyalar o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga xizmat qiladigan muhim kasbiy funktsiya sifatida talqin etiladi hamda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik faoliyat, kasbiy kompetentlik, refleksiv tahlil, pedagogik jarayon, kasbiy rivojlanish, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik mahorat.

**СОДЕРЖАНИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РЕФЛЕКСИВНЫХ  
КОМПЕТЕНЦИЙ  
(НА ПРИМЕРЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ)**

**Аннотация:** В данной статье раскрываются теоретические основы формирования рефлексивных компетенций у будущих учителей, а также их сущностное содержание. Рассматривается педагогическая интерпретация понятия рефлексии, анализируются структурные компоненты рефлексивных компетенций и их значение в повышении эффективности педагогической деятельности. Кроме того, научно обосновываются педагогические факторы, методы и подходы, способствующие развитию рефлексивных компетенций у будущих учителей. Рефлексивные компетенции рассматриваются как важная профессиональная функция, обеспечивающая анализ, оценку и совершенствование собственной профессиональной деятельности учителя, а также выступающая значимым фактором повышения эффективности педагогического процесса.

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, профессиональная компетентность, рефлексивный анализ, педагогический процесс, профессиональное развитие, самооценка, педагогическое мастерство.

## **THE CONTENT AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF REFLECTIVE COMPETENCIES (AN EXAMPLE OF FUTURE TEACHERS)**

**Abstract:** This article reveals the theoretical foundations of the formation of reflective competencies in future teachers and highlights their essential characteristics. The pedagogical interpretation of the concept of reflection is considered, and the structural components of reflective competencies as well as their role in increasing the effectiveness of pedagogical activity are analyzed. In addition, pedagogical factors, methods, and approaches that contribute to the development of reflective competencies in future teachers are scientifically substantiated. Reflective competencies are interpreted as an important professional function that enables teachers to analyze, evaluate, and improve their own professional activities and serves as a significant factor in enhancing the effectiveness of the pedagogical process.

**Keywords:** pedagogical activity, professional competence, reflective analysis, pedagogical process, professional development, self-assessment, pedagogical mastery.

### **KIRISH**

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda reflektiv kompetensiyani shakllantirish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, baholash hamda uni takomillashtirish qobiliyatiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Refleksiya pedagogik faoliyatni anglash, uning natijalarini baholash va kelgusidagi faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladigan muhim nazariy hamda amaliy mexanizmlardan biridir. Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan modernizatsiya jarayonlari pedagoglardan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish hamda o'z faoliyatini muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Reflektiv kompetensiyalar pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarni baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni samarali hal etish imkonini beradi. Natijada pedagog o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirishga, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga hamda o'qituvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishga erishadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida refleksiya hamda reflektiv kompetensiyalar masalasi turli ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda refleksiya shaxsning o'z faoliyatini anglash, tahlil

qilish va baholash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, refleksiv kompetensiyalar pedagogning kasbiy rivojlanishi, pedagogik mahoratini oshirish hamda ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashda muhim omil sifatida qaraladi. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish pedagogik ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv kompetensiyalarning mazmun-mohiyati, ularning tarkibiy komponentlari hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar, metod va yondashuvlar nazariy jihatdan asoslab beriladi. Mazkur masalaning ilmiy o'rganilishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Refleksiv kompetensiyalar va pedagogik refleksiya masalasi bugungi pedagogika fanida keng ilmiy o'rganilgan. Refleksiya tushunchasi pedagogik tadqiqotlarda shaxsning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash jarayoni sifatida talqin qilinadi, u pedagogning tanqidiy tafakkuri, metakognitiv jarayonlari va kasbiy o'sishida muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Xususan, ilg'or tadqiqotlarda refleksiv kompetensiyaning psixologik va pedagogik asoslari yoritilgan, bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini ongli boshqarish, qaror qabul qilish va o'z-o'zini baholashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'qituvchilarda refleksivlik ko'nikmalarini shakllantirish, uning zamonaviy ta'limdagi roli va pedagogik tadqiqotlarda yoritilishi bo'yicha ilmiy tahlillar mavjud. Bu tadqiqotlarda refleksiya pedagogning kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida ko'riladi hamda refleksiv kompetentlik – pedagogning chuqur pedagogik tafakkur va amaliyotni takomillashtirishga yo'naltirilgan murakkab kasbiy salohiyat ekanligi ta'kidlangan. Refleksiv kompetensiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, unda reflektiv kompetensiya pedagogning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini ifodalovchi asosiy kasbiy kompetensiya sifatida qaraladi. Bunday yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda refleksiv kompetensiyalarning o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, pedagogik refleksiya o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish vositasi sifatida ham ko'rib chiqilgan bo'lib, bu jarayon o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mustaqil tadqiqotlarda refleksiv kompetensiyaning tarkibiy komponentlari (masalan, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini baholash, refleksiv tahlil) aniqlangan, bu komponentlar pedagogning kasbiy kompetentligini to'liq ifodalashga yordam beradi. Biroq mavjud tadqiqotlar ko'pincha refleksiv kompetensiyaning

individual komponentlariga yoki umumiy ta'lim jarayonidagi roli bilan chegaralangani sababli, aynan **bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va ularning pedagogik jarayon samaradorligiga ta'siri** kabi kompleks masalalar yanada chuqur ilmiy tadqiqotni talab etadi. Reflektiv kompetensiyalar pedagogik tadqiqotlarda ko'p yillardan beri o'rganib kelinayotgan muhim ilmiy-kasbiy kategoriya hisoblanadi. Refleksiya pedagogik faoliyatni anglash, o'z-o'zini baholash va takomillashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi, bu jarayon o'qituvchining kasbiy o'sishiga xizmat qiladigan asosiy mexanizmlardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, reflektiv kompetensiya kasbiy pedagogik yondashuv va metakognitiv jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, pedagoglarning o'z faoliyatlarini strategik tarzda qayta ko'rib chiqish, tahlil qilish va samarali takomillashtirish imkonini beradi[1. 89-b.].

Bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda ijtimoiy-psixologik va kasbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda refleksiya bo'lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib, ta'limiy faoliyatga chuqur yondashuvni talab qilishi ta'kidlangan. Reflektivlik o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa uchrayotgan pedagogik vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshiradi. Pedagoglik amaliyotida reflektiv kompetensiyaning o'rni ham alohida tadqiq etilgan bo'lib, u o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini tizimli boshqarish, faoliyat natijalarini baholash va pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga reflektiv yondashuvlar o'quv jarayonida interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlardan foydalanish va metakognitiv strategiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi.

**MULOHAZA.** Ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida pedagogik ta'lim muassasalari o'quvchilarga o'z faoliyatini tahlil qilish, didaktik qarorlar qabul qilish va o'z-o'zini baholash qobiliyatlarini mustahkamlash uchun maxsus metodik vositalarni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Talabova D. [3. 234-b.] reflektiv kompetensiyaning to'rtta tarkibiy komponentlar ya'ni: kognitiv, tahliliy, baholash va rivojlanish elementlarini aniqlab, ularni raqamli ta'lim muhiti sharoitida samarali shakllantirish yo'llarini taklif etadi. Bu komponentlar bo'lajak o'qituvchilarda metakognitiv ongni rivojlantirish va pedagogik amaliyotni mazmunli tahlil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Ilmiy izlanishlarda reflektiv kompetensiyaning samaradorligini oshirish uchun xalqaro usullardan Lesson Study, jamoaviy kuzatuv, teskari aloqa mexanizmlari va rejalashtirilgan reflektiv daftarlar kabi integrativ yondashuvlarni qo'llash samarali

ekanini ko'rsatadi [5. 284-b.]. Bu usullar nafaqat o'qituvchilarning professional fikrlashini chuqurlashtirish, balki ularning amaliyotni doimiy takomillashtirishga yo'naltirilgan ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu boisdan bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib, bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish uchun zarur hisoblanadi. Refleksiya va reflektiv kompetensiya bunda, refleksiya pedagogik tadqiqotlarda shaxsning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va baholash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon o'qituvchining kasbiy rivojlanishida, pedagogik qarorlarni qabul qilishda, shuningdek o'quv jarayonini samarali boshqarishda muhim vosita hisoblanadi. Reflektiv kompetensiyani "Amaliyotni doimiy tahlil qilish va o'z-o'zini takomillashtirish orqali professional faoliyatni optimallashtirish qobiliyati" sifatida belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, reflektiv kompetensiya nafaqat pedagogik faoliyatni anglash, balki o'qituvchining metakognitiv salohiyatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Reflektiv kompetensiyaning tarkibiy jihatlari bir necha komponentdan iborat: kognitiv, baholash, analitik va rivojlantirish elementlari [3. 134-b.]. Kognitiv komponent pedagogning o'z faoliyatini anglash qobiliyatini, baholash komponenti esa natijalarni tanqidiy baholash imkoniyatini beradi. Analitik komponent pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi, rivojlantirish komponenti esa o'z-o'zini takomillashtirish va professional mahoratni oshirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, reflektiv kompetensiyalar pedagogning kasbiy mahorati va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda bevosita rol o'ynaydi [2. 342-b.].

1-jadval.

Reflektiv kompetensiyalarning mazmun-mohiyati va tarkibi

T/r	Yo'nalish	Tavsifi va tarkibiy elementlari
1	Mohiyati	Shaxsning o'z harakatlari va holatlarini tahlil qilishi, anglash jarayoni.
2	Tarkibiy komponentlar	- O'z-o'zini anglash: Shaxsiy "Men" qiyofasini va kasbiy pozitsiyasini shakllantirish. - O'z-o'zini baholash: Yutuq va kamchiliklarni xolis tahlil qilish. - O'z-o'zini loyihalash: Kelgusi faoliyat strategiyalarini belgilash.
3	Subyektlik statusi	Ta'lim oluvchini passiv obyektidan o'z rivojlanishi uchun javobgar faol subyektga aylantirish.
4	Pedagogik ahamiyati	Kasbiy mahoratni oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytirish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda reflektiv kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy ta‘lim tizimi global ta‘lim standartlariga moslashishni talab qiladi. Bu esa bo‘lajak pedagoglardan mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va doimiy professional o‘shishga intilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini rivojlantirishda dolzarb vazifa sifatida qaraladi [1. 89-b.]. Reflektiv kompetensiyalar pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini birlashtiruvchi vosita sifatida o‘rganilgan. Ular o‘qituvchilarga pedagogik vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ta‘lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi [9. 326-b.]. Shu bilan birga, reflektiv yondashuvlar pedagogning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, pedagogik xatolarni aniqlash va ularni tuzatishga xizmat qiladi.

2-jadval.

Jamoaviy o‘qitish va SI texnologiyalarining o‘rni

<b>Texnologik yondashuv</b>	<b>Amaliy imkoniyatlari</b>
<b>SI va Adaptiv tizimlar</b>	O‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilish va individual o‘quv trayektoriyasini loyihalash.
<b>Jamoaviy o‘qitish (TBL)</b>	Hamkorlikda muammolarni hal qilish, ijtimoiy kooperatsiya va “peer-like agent” (SI bilan sheriklik).
<b>Fanlararo integratsiya</b>	Tabiatshunoslik, matematika va ona tili fanlarini yaxlit pedagogik jarayonda birlashtirish (masalan, “Qushlar” mavzusi).
<b>Avtomatik baholash</b>	Real vaqt rejimida bilim darajasini aniqlash va individual metodik tavsiyalar berish.

Pedagogik jarayonda reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ va interaktiv pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi. Bunda Lesson Study, kollegial kuzatuv, teskari aloqa mexanizmlari va strukturaviy reflektiv daftarlar pedagoglarning professional tahlil va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini mustahkamlaydi [4. 545-b.]. Bundan tashqari, raqamli ta‘lim muhiti reflektiv kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z faoliyatini baholash, tahlil qilish va pedagogik qarorlarni ishlab chiqish imkonini beradi [3. 134-b.]. Shu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda metakognitiv ongini rivojlantirish, o‘z-o‘zini baholash va pedagogik mahoratni oshirishga xizmat qiladi.

3-jadval.

**Zamonaviy pedagogning transformatsiyalashgan rollari**

<b>Rol nomi</b>	<b>Vazifasi va funksiyasi</b>
<b>Moderator</b>	Guruh bilan teng huquqli hamkorlik (dialog) oʻrnatuvchi, jarayonni chegaralovchi va yoʻnaltiruvchi.
<b>Fasilitator</b>	Oʻquvchilarning mustaqil faoliyatini qoʻllab-quvvatlovchi va qulay muhit yaratuvchi.
<b>Tutor (Tyutor)</b>	Individual taʼlim trayektoriyasi boʻyicha maslahat beruvchi va koʻmaklashuvchi.
<b>Mentor</b>	Kasbiy tajriba bilan oʻrtoqlashuvchi, yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi murabbiy.

Ilmiy tadqiqotlar jarayonida oʻrganilgan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, refleksiv kompetensiyalar pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, zamonaviy taʼlim tizimida boʻlajak oʻqituvchilarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar koʻrsatadiki, refleksiv kompetensiyalarni tizimli shakllantirish boʻlajak pedagogning kasbiy mahoratini oshirish, pedagogik jarayonni optimallashtirish va oʻquvchilarning mustaqil fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1. 89-b.]; [3. 134-b.]; [9. 326-b.].

4-jadval.

**Sikstet modeli (Kompetentli yondashuv)**

<b>T/r</b>	<b>Bosqich</b>	<b>Tavsifi</b>
<b>1</b>	<b>Bilim</b>	Nazariy maʼlumotlar majmui.
<b>2</b>	<b>Koʻnikma</b>	Bilimlarni tanish vaziyatlarda qoʻllash.
<b>3</b>	<b>Malaka</b>	Avtomatlashgan harakatlar shakli.
<b>4</b>	<b>Amaliy tajriba</b>	Faoliyat jarayonida toʻplangan koʻnikmalar.
<b>5</b>	<b>Kompetensiya</b>	Bilim va malakalarni kundalik va kasbiy hayotda qoʻllash layoqati.
<b>6</b>	<b>Kompetentlik</b>	Integral shaxsiy tavsif, kasbiy funksiyalarni meʼyor darajasida bajarish.

**XULOSA** O'rganilgan adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv kompetensiyalarni tizimli shakllantirish pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish, pedagogning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan ta'limni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Reflektiv yondashuv pedagogga o'z amaliy faoliyatini tizimli tahlil qilish, pedagogik qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, shuningdek, ta'lim jarayonini doimiy optimallashtirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, reflektiv kompetensiyalar bo'lajak o'qituvchilarning metakognitiv ongini chuqurlashtiradi, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash qobiliyatlarini mustahkamlaydi hamda pedagogik vaziyatlarda innovatsion va moslashuvchan yondashuvlarni qo'llashga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, reflektiv kompetensiyalar pedagogik jarayon sifatini oshirish, kasbiy mahoratni mukammallashtirish va professional o'sishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy faoliyatni tashkil etishda markaziy o'rin tutadi. O'rganishlar natijasida quyida **tavsiyalar keltirib o'tamiz: Pedagogik ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish:** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarga reflektiv kompetensiyalarni tizimli rivojlantirishga qaratilgan maxsus modul va kurslar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu kurslarda Lesson Study, kollegial kuzatuv, teskari aloqa va strukturaviy reflektiv daftarlar kabi integrativ va interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. **Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish:** Reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida elektron portfellar, onlayn reflektiv jurnallar va virtual ta'lim platformalaridan keng qo'llash samarali hisoblanadi. Bu pedagogga o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi. **Mentorlik va kollegial kuzatuv mexanizmlarini joriy etish:** Bo'lajak pedagoglarning reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirishda mentorlik, professional hamkorlik va kollegial kuzatuv tizimini tizimli qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu pedagogga o'z faoliyatini doimiy baholash va takomillashtirish imkonini beradi. **Doimiy professional rivojlanish tizimi:** Reflektiv kompetensiyalarni shakllantirish faqat o'quv jarayonida emas, balki professional rivojlanish kurslari, ilmiy seminarlar va treninglar orqali ham davom ettirilishi lozim. **Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va chuqurlashtirish:** Reflektiv kompetensiyalarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi, pedagogning individual xususiyatlariga ta'siri hamda interaktiv metodlar bilan bog'liq ta'sirini o'rganishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar olib borilishi zarur. Ushbu natijalar bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yanada sifatli rivojlantirish va pedagogik jarayonni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Refleksiv kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, pedagogik jarayonni samarali boshqarish va ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish uchun nafaqat muhim, balki strategik ahamiyatga ega ilmiy-amaliy vosita sifatida qaraladi. Bu kompetensiyalar pedagogga o'z faoliyatini doimiy tahlil qilish, pedagogik qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, shuningdek, o'quv jarayonidagi murakkab vaziyatlarda moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini beradi. Shuningdek, refleksiv yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda metakognitiv ongni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash qobiliyatini mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida pedagogning professional o'sishini ta'minlaydi, pedagogik xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Shu tariqa, refleksiv kompetensiyalarni tizimli shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtiradi, ularning pedagogik qaror qabul qilish va o'quv jarayonini boshqarish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi hamda sifatli va samarali ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Akbarova G.S. Refleksiv kompetensiya tushunchasining pedagogik va psixologik asoslari. *Pedagogs International Research Journal*. 2025. Retrieved from <https://openresearch-hub.com/index.php/ped/article/view/771>
2. Gorbunova N.V., Gluzman N.A., & Osadchaya I.V. Pedagogical reflection as a professional competence in conditions of lifelong pedagogical education. 2021. *SHS Web of Conferences*, 113, 00094.
3. Talabova D. Developing Professional-Reflexive Competence in Future Primary School Teachers Within a Digital Learning Environment. 2025. *International Journal of Pedagogics*.
4. Hummes V., & Seckel J. Integrative Approaches to Teacher Reflection and Professional Development. *Frontiers in Education*. Retrieved from 2024. <https://www.frontiersin.org/journals/education/articles/10.3389/feduc.2024.1331199/full>
5. Narkuzieva Z.K. *Psychological and Pedagogical Features of Developing Reflective Competence of Students in the Process of Teaching English*. *American Journal of Philological Sciences* 2026.
6. Mustaeva E. *Methods and Tools for Developing English Language Teachers' Reflective Competence in Professional Development Courses*. *WOS Journals* 2025.
7. Tojiyeva S., & Jovliyeva M. *Pedagogik faoliyatda refleksiya*. *Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali* 2025.

8. Dilshodbekova M.I. *Talabalarda refleksiv kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari. Miasto Przyszłości 2025.*
9. Odiljonova O. *The Teacher's Professional Competence in the Reflective Management of the Pedagogical Process. International Journal of Pedagogics 2025.*